

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

FRAZEOLOGIK MA'NO TARKIBIDA GIPERBOLIK KOMPONENTNING SHAKLLANISH MEKANIZMLARI

Karimova Xilola Mirzamaxmudovna

Asaka tumani 30-maktab, o'qituvchi.

e-mail: karimovahilda1987@gmail.com **ORCID:** <https://orcid.org/0009-0000-6777-2740>

Annotatsiya.

Maqolada frazeologik ma'no tarkibida giperbolik komponentning shakllanish mexanizmlari tahlil qilinadi. Masala yuzasidan izlanish olib borgan tilshunoslarning qarashlari asosida giperbolizatsiyaning obrazlilik, ekspressivlik va semantik ko'chish bilan bog'liqligi yoritiladi. Giperbolik komponentning yuzaga kelish omillari misollar asosida ochib beriladi.

Kalit so'zlar: frazeologik ma'no, konnotatsiya, giperbolik unsur, makrokomponentli model, ichki shakl, intensivlik.

МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ГИПЕРБОЛИЧЕСКОГО КОМПОНЕНТА В СОСТАВЕ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОГО ЗНАЧЕНИЯ

Каримова Хилола Мирзмахмудовна

Школа № 30 Асакинского района, учитель.

Аннотация.

В статье анализируются механизмы формирования гиперболического компонента в структуре фразеологического значения. На основе взглядов лингвистов, исследовавших данную проблему, раскрывается связь гиперболизации с образностью, экспрессивностью и семантическим переносом. На конкретных примерах рассматриваются факторы, обуславливающие возникновение гиперболического компонента.

Ключевые слова: фразеологическое значение, коннотация, гиперболический компонент, макрокомпонентная модель, внутренняя форма, интенсивность.

MECHANISMS OF FORMATION OF THE HYPERBOLIC COMPONENT WITHIN THE PHRASEOLOGICAL MEANING

Karimova Xilola Mirzamaxmudovna

School No. 30, Asaka District, Teacher.

Abstract.

The article analyzes the mechanisms underlying the formation of the hyperbolic component in the structure of phraseological meaning. Drawing on the views of linguists who have investigated this issue, the study examines the relationship between hyperbolization, imagery, expressiveness, and semantic transfer. The factors contributing to the emergence of the hyperbolic component are illustrated through specific examples.

Keywords: phraseological meaning, connotation, hyperbolic component, macrocomponent model, inner form, intensity.

Kirish. Turg'un birikmaning ma'nosi so'z ma'nosidan bir qator belgilari bilan ajralib turadi: u komponentlar semantikasining yig'indisiga teng emas, obrazga tayanadi, konnotativ yuki og'ir keladi. A. V. Kunin ana shu farqlarga asoslanib alohida frazeologik ma'no turi mavjudligini qayd etgan va uning hajmi, mazmuni hamda ifoda usulini so'z ma'nosinikidan qat'iy chegaralagan [1; 140–161-b.]. L. I. Royzenzon esa frazeologiyani tilning mustaqil sathi deb qarash tarafdori edi; uning ma'ruzalarida turg'un birikma semantikasining "qo'shilmas" tabiati markaziy o'rin egallaydi [2; 24–26-b.].

Motivatsiya darajasi bo'yicha yondashuvda ham xuddi shu manzara takrorlanadi: N. N. Amosova ajratgan ma'nosi butunlay qorishgan idiomalar hamda bir komponenti bog'langan frazemalar orasida bo'rttirilgan birliklar asosan idiomalar hududida to'planadi [3; 96–108-b.].

Semantik jipslik darajasi bo'yicha qaralganda giperbolik birliklarning taqsimoti bir tekis emas. V. V. Vinogradov tasnifidagi frazeologik chatishmalar, butunliklar va qo'shilmalar orasida bo'rttirilgan obrazli birliklar dastlabki ikkitasida zich joylashadi [4; 140–161-b.]. Sabab tushunarli: bo'rttirilgan obraz komponentlarning erkin ma'nolari bilan yashay olmaydi, u yaxlit qayta idrokni talab qiladi. Shu holatning o'ziyoq giperbolik unsur bilan semantik jipslik orasida ichki bog'liqlik borligiga ishora qiladi.

Konnotatsiya atamasining o'zi ham aniqlashtirilishi lozim, negaki u tilshunoslikda tor va keng talqinlarda yuradi. Ishimizda V. N. Teliyaning maxsus monografiyasida asoslangan keng talqin qabul qilindi: konnotatsiya — nominativ birlik semantikasiga kiruvchi, so'zlovchining voqelikka hissiy-baholovchi munosabatini aks ettiruvchi makrokomponent [5; 20–22-b.]. Bizningcha, keng talqin giperbolik material uchun ayni muddao, chunki bo'rttirish natijasida hosil bo'lgan

intensivlik, baho va emotivlik yagona konnotativ mexanizmning uch qirrasini o'laroq o'rganiladi.

Frazeologik semantikaning ichki tuzilishini tavsiflashda V. N. Teliya taklif etgan makrokomponentli model qulay. Unga muvofiq, ibora ma'nosi bir necha blokdan quriladi: denotativ blok belgining o'zini, baholovchi blok so'zlovchi hukmini, motivatsion blok ichki shakl-obrazni, emotiv blok hissiy munosabatni, stilistik blok qo'llanish sharoitini, madaniy blok esa milliy fon bilimlarini qamrab oladi [6; 107–134-b.].

Model qat'iy ierarxiya emas. Bloklar o'zaro kirishib, bir-birini oziqlantirib turadi. Giperbolik unsur esa ayni blokning qaysi qismida mujassamlashishi masalasi tadqiqotimiz uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bizning javobimiz quyidagicha: bo'rttirish motivatsion blokda — ichki shakl tarkibida tug'iladi, biroq uning ta'siri shu doira bilangina cheklanmaydi. Obrazdagi chegaradan chiqqan qiymat denotativ blokka intensivlik belgisi bo'lib o'tadi, baholovchi blokni qutblantiradi, emotiv blokka hissiy zaryad beradi. Bitta unurning shu tarzda butun qurilma bo'ylab "nur taratishi" giperbola komponentli birliklarning semantik o'ziga xosligini belgilab beradi.

Ichki shakl tushunchasining o'zi A. A. Potebnya ilmiy merosiga borib tutashadi. Olim so'zning yaqin etimologik ma'nosini ichki shakl deb atab, uni yangi mazmunni eski obraz orqali idrok etish vositasi sifatida talqin qilgan edi [7; 74–75-b.]. Tushuncha keyinchalik frazeologiyaga ko'chirildi: A. M. Melerovich turg'un birlikning ichki shaklini uning erkin prototipi bilan bog'lab, frazeologik ma'noni ayni shu prototip fonida tahlil qilish tartibini ishlab chiqqan [8; 12–15-b.].

V. P. Jukov taklif etgan applikasiya usuli shu yo'nalishdagi eng aniq amaliy vositalardan biridir: turg'un ma'no o'zining erkin "dublyoriga" ustma-ust qo'yib ko'riladi, mos kelmagan o'rinlar frazeologik siljishning ko'lamini ochadi [9; 95–113-b.]. Giperbolik birliklarga tatbiq etilganda usul darrov samara beradi: erkin o'qishda hosil bo'ladigan manzara har gal voqelik chegarasining narigi tomonida qoladi, siljish esa aynan daraja o'qi bo'ylab kechadi.

A. Langlots idiomatik ijodkorlik modelida motivatsiyaning darajalarini farqlaydi: birlik yaxlit obraz orqali ham, ayrim komponentlarning mustaqil ko'chma ma'nolari orqali ham asoslanishi mumkin [10; 45–71-b.]. R. Jibbs esa idiomalarni "o'lik metafora" deb baholash an'anasiga qarshi chiqib, ularning zaminida faol konseptual asoslar yotishini eksperimental materialda namoyish etgan [11; 268-b.]. S. Glaxsberg iboraning allyuziv mazmuni haqida yozadi: turg'un birlikma o'z prototip sahnasiga ishora qilib turadi, tinglovchi esa shu sahnani xotirada tiklash orqali ma'noga yetib boradi [12; 68–70-b.].

Talqin jarayonining psixolingvistik tafsiloti ham ichki shakl foydasiga guvohlik beradi. K. Kachchari va P. Tabossi tajribalari idiomani tanib olishda "kalit" nuqta — birlikning turg'unligini oshkor etuvchi komponent — hal qiluvchi rol o'ynashini aniqlagan [13; 668–683-b.]. Giperbola komponentli birliklarda kalit vazifasini odatda chekka qiymatli so'z bajaradi: tinglovchi *a hundred and one* qurilishidagi g'ayrioddiy sonni eshitgan zahoti erkin o'qishdan voz kechadi. Boshqacha aytganda, bo'rttirilgan komponent talqinni tezlashtiruvchi yo'l ko'rsatkichi bo'lib ham xizmat qiladi.

Ichki shaklning holatiga ko'ra, ishimizda quyidagi ishchi shkalani qabul qilamiz: jonli ichki shakl (obraz so'zlovchi tomonidan bemalol tiklanadi), xiralashgan ichki shakl (obraz maxsus e'tibor bilan tiklanadi) va yo'qolgan ichki shakl (obraz faqat etimologik ma'lumot orqali ochiladi).

Hozirgi frazeologiya nazariyasida ichki shakl masalasi semantik tuzilishning ikki sathli talqini doirasida rivojlantirilmoqda. A. N. Baranov va D. O. Dobrovolskiy ibora mazmunida aktual ma'no bilan obraz asosini ikki mustaqil, ammo doimiy muloqotdagi sath sifatida qaraydi [14; 210–212-b.]. Ikki sathlilik giperbolik birliklarning semantik tabiatiga xosdir. Aktual mazmunda daraja belgisi faollashsa, obrazli asosda me'yor chegarasidan oshgan tasvir saqlanadi. Nutqiy vaziyat esa shu unsurlardan birini ustuvorlashtiradi.

Endi tadqiqotimizning tayanch atamasiga aniqlik kiritish zarur. "Giperbolik komponent" birikmasi ikki xil talqin qilinishi mumkin: leksik talqinda u bo'rttirish tashuvchi so'z-komponentni (son, o'lchov nomi, o'lim leksemasi kabilarni), semantik talqinda esa ichki shakldagi chegaradan chiqqan obraz unsurini va undan o'sib chiqadigan intensivlik semasini bildiradi. Ishimizda atamani leksik-semantik ma'noda qo'llaymiz, zero bo'rttirish har doim ham maxsus leksemaga birlashtirilgan bo'lmaydi: *terisiga sig'may ketmoq* birligida uni yakka so'zga yuklab bo'lmaydi, butun sahna bo'rttirilgan. Leksik tashuvchilar esa tahlil jarayonida qo'shimcha belgi sifatida qayd etiladi, sababi ular mavjud bo'lgan o'rinlarda mexanizmni aniqlash osonlashadi.

Kuchaytirish semasining maxsus nomi ham ilmiy muomalada mavjud: I. I. Turanskiy uni intensema deb ataydi va so'z va birlikma semantikasidagi doimiy yashash shakllarini tavsiflaydi [15; 27–29-b.]. Giperbola komponentli frazeologik birlikda intensema fakultativ emas, majburiy semadir: uni olib tashlash birlikni butunlay boshqa ma'noga ko'chiradi yoki umuman parchalab yuboradi.

Ayni o'rinda bo'rttirish o'lchanadigan nol nuqta — me'yor haqida ham ikki og'iz so'z zarur. Me'yor obyektiv kattalik emas, jamoaning o'rtacha tajribasidan kelib chiquvchi stereotipdir [16; 65–67-b.]: qancha kulish "oddiy", qancha mehnat "odatiy" ekani madaniy kelishuvda belgilanadi. Giperbolik birlik ana shu ko'zga ko'rinmas stereotipga tayanadi va uni parchalash orqali o'zini namoyon qiladi.

Intensemaning frazeologik yashash tarzida bir muhim xususiyat bor: u turg'unlashgan darajani ifodalaydi. Erkin kuchaytirgich shkalalar bo'ylab erkin almashadi. *Sal, ancha, juda, g'oyat* kabi birliklar belgining turli darajalarini ifodalay oladi; giperbolik birlik esa faqat chekka zonada faollashadi: *ichagi uzilguncha* o'rtacha kulgini bildiradi olmaydi. Daraja tanlash erkinligining yo'qligi birlikni kuchsizlantirmaydi, aksincha, unga kafolat beradi: so'zlovchi shu shaklni tanladimi, tinglovchi chekka daraja haqida gap ketayotganini aniq biladi.

Uning mavjudligini tekshirishning qulay leksikografik yo'li bor. Izohli va tarjima lug'atlarida bunday birliklar ta'rifi deyarli hamisha daraja ko'rsatkichi bilan beriladi: o'zbek lug'atlarida "juda", "g'oyat", "nihoyatda" so'zlari [17; 5–9-b.], ingliz leksikografiyasida *very, extremely, completely* markerlari shu vazifani o'taydi [18; 8–15-b.]. Ishimizda shu kuzatuvdan amaliy mezon yasaldi: birlik ta'rifida daraja markerining barqaror uchrashi intensema mavjudligining

leksikografik guvohnomasi deb qabul qilishga, shunday ekan, haqimiz bor.

Shakllanish tartibida konnotatsiya har doim ham ikkinchi o'rinda turmasligini alohida aytish kerak. N. A. Lukyanova ekspressiv leksikani o'rganar ekan, ayrim birliklar avvalo ifoda ehtiyoji uchun yaratilishini, atash vazifasi ularga keyin "yopishishini" ishonarli dalillagan [19; 12–14-b.]. Giperbolik frazeologiya uchun bu kuzatuv ayni haqiqat, chunki ular voqelikka munosabatni kuchaytirib yetkazish uchun tug'iladi. Ularning "birlamchi kasbi" ekspressiyadir.

Iboraviy ma'noning shakllanishi umumiy holda uch pog'onali yo'l sifatida tasvirlanadi: erkin birikma nutqda ko'chma qayta idrok etiladi, qayta idrok takrorlanib turg'unlashadi, turg'unlashgan shakl til birligiga aylanadi. A. V. Kunin qayta idrokning asosiy turlarini — metaforik, metonimik hamda qiyosiy ko'chishlarni — batafsil tavsiflagan [20; 130–131-b.]; V. M. Mokiyenko esa motivatsiya turlarini kengroq qatorda ko'rib, ularning ichida ekspressiv qayta idrokka alohida bob ajratgan [21; 78–96-b.].

Frazeologizmlarning o'zbek tili materialidagi shakllanish manbalarini A. Mamatov keng tekshirgan. U erkin birikmalarning ko'chma qo'llanishi, xalq og'zaki ijodi, kasb-hunar nutqi, diniy-marosim matnlarini ibora fondini to'ldirib turuvchi asosiy o'zanlar sifatida qayd etadi [22; 118–121-b.].

Yuqoridagi tahlillar bayonidan kelib chiqib aytish mumkinki, giperbolizatsiya frazeologik ko'chish jarayoniga hamroh bo'luvchi va uni kuchaytiruvchi modifikatordir. Metaforik, metonimik yoki qiyosiy asos o'z holicha intensiv ma'no bermasligi mumkin; obrazga chegaradan chiqqan qiymat kiritilgach, ko'chish ekspressiv quvvat oladi. Shu qarashda bo'rttirish frazeologizatsiyaning "katalizatori" maqomini tutadi: u jarayonni boshlamaydi, ammo tezlashtiradi va natijani barqarorlashtiradi.

Endi giperbolik ma'no hosil bo'lish mexanizmlariga murojaat qilsak, to'plangan material ularni ikki yirik guruhga ajratishga imkon berdi: obrazli asosga tayanuvchi mexanizmlar va miqdoriy asosga tayanuvchi mexanizmlar. Farqlash mezon bo'rttirishning semantik manbaiga bog'liq. Obrazga asoslangan holatda butun manzara, o'lchovga tayanuvchi holatda esa sanaladigan yoki o'lchanadigan komponent asosiy o'rin egallaydi.

Obrazli asosga tayanuvchi mexanizmlarda denotativ ssenariyning voqelik me'yoriga sig'maydigan tarzda qurilishi yetakchi o'rin tutadi. Ingliz tilidagi *to eat one's hat* birligi zamiridagi va'da bajarib bo'lmas harakatga tayanadi; o'zbek tilidagi *osmon uzilib yerga tushsa ham* qurilmasi shart maylini kosmik halokat obrazi bilan yuklaydi. Bu kabi ssenariyni to'g'ri ma'noda qabul qilishning iloji yo'qligi tinglovchini darhol ko'chma ma'no tarzida o'qishga majbur etadi [23; 74–87-b.]. Voqelik me'yoriga sig'maydigan ssenariyning sevimli grammatik qobig'i shart ergash gapli qurilmalardir.

Miqdoriy asosga tayanuvchi mexanizmlar son almashuvi, umumiy kvantorlarning qo'llanilishi va h.k. omillarga asoslanadi. Masalan, o'zbek tilida kutishning zo'riqishi ko'z sonini oshirish bilan beriladi — *ko'zi to'rt bo'ldi*; bilishning to'laligi qo'l barmoqlariga tenglashtiriladi — *besht qo'lday bilmoq*. Ingliz tilida band kishining yumushlari *a hundred and one things* qolipida sanaladi, uzoq muddat esa *donkey's years* birligida hayvon umri bilan o'lchanadi.

Ikki guruh orasidagi chegara mutlaq emas: ko'pchilik birliklarda obrazli va miqdoriy asoslar qo'shilib keladi.

Mexanizmlar tavsifida grammatik modulyatsiya hodisasiga to'xtalish zarur. O'zbek tilida *-(a)yo'z* affiksi va *-ay dedi* qurilmasi bo'rttirilgan ssenariyni "deyarli" rejimiga o'tkazadi: *yuragi yorilayozdi, o'lib qolay dedi* shakllarida halokat sodir bo'lmaydi, unga bir qadam qolganligi tilga olinadi. Approksimativ shakl giperbolani ishonarlilik tomon tortib, ayni paytda terminal obrazning butun kuchini saqlab qoladi — subyektiv baho vositalarining shu turi milliy grammatikada maxsus tavsiflangan [24; 41–43-b.]. Ingliz tili shu vazifani analitik yo'l bilan — *nearly, almost* ravishlari orqali — bajaradi: *nearly died laughing*. Tipologik farq aniq: sintetik moslashuv qarshisida analitik moslashuv turadi.

Mexanizm yuzaga keltirgan bo'rttirilgan obraz hali turg'un til birligi maqomiga ega emas. Buning uchun u barqarorlashuv jarayonidan o'tishi lozim. Kuzatishlarimiz shu jarayonni o'zaro bog'liq bir necha davr doirasida tavsiflash imkonini berdi.

Dastlab obraz individual nutqda tug'iladi. So'zlovchi zo'riqishni qonli terga, intizorlikni to'rt ko'zga mengzab, mavjud mazmunga kuchliroq ifoda beradi. A. M. Emirova frazeologiyaning kommunikativ jihatini tadqiq etib, iboraning yuzaga kelishini so'zlovchining ta'sir ehtiyoji bilan bog'laydi [25; 15–34-b.]. Giperbolik obrazlarning nutqda faol tug'ilishi ham ana shu ehtiyoj bilan aloqador.

Bunday yaratuvchanlik, ayniqsa, badiiy nutqda keng qayd etiladi. Yozuvchi tayyor birliklar doirasi bilan cheklanmay, yangi obrazlar yaratadi. Ularning aksariyati muallif uslubiga xos holda qoladi, ayrimlari esa umumiy nutqqa o'tib, turg'unlashadi.

Keyingi jarayon jamoaviy tanlov bilan bog'liq. Nutqda tug'ilgan ko'plab bo'rttirishlardan ayrimlarigina takroriy qo'llanishga o'tadi. Bunda obrazning ta'sirchanligi, talaffuz qulayligi, madaniy asosga mosligi hamda kuchli ifodaga ehtiyoj seziladigan mazmun sohasi bilan aloqasi muhimdir. A. Nasisione yadroviy qo'llanish tushunchasi orqali birlikning barqaror shakl kasb etishini ijodiy qo'llanishdan farqlaydi [26; 39–41-b.]. Ya'ni jamoaviy tanlovdan o'tish barqaror shaklning qaror topishi bilan birga kechadi.

Shakliyl omillar ham bu jarayonda chetda qolmaydi. Tovush uyg'unligi birlikning xotirada saqlanishini yengillashtiradi. *Ipdan ignasigacha* birligidagi ohangdoshlik, *bag and baggage* tarkibidagi boshlang'ich undosh takrori ritmik yaxlitlik hosil qiladi.

Madaniy moslik ham tanlovga ta'sir etadi. Masalan, ter obrazini kuchaytirishda ranglar orasidan aynan qora rangning barqarorlashuvi o'zbek madaniy tajribasida mashaqqat, og'irlik va qayg'u bilan bog'langan tasavvurlar orqali izohlanadi. Madaniy tasavvurga yot variantning umumiy nutqqa singishi qiyin.

Jarayon davomida variantlar ham saralanadi. Ayni mazmun avval turli obrazlarda ifodalanishi mumkin, keyinchalik ayrim shakllar saqlanib, boshqalari iste'moldan chiqadi. B. Yo'ldoshev o'zbek frazeologiyasida variantlik va sinonimiya munosabatlarini tahlil qilib, barqarorlashuvning uslubiy omillarini yoritgan [27; 23–25-b.]. Ingliz tilidagi *lock, stock and barrel* singari birliklarda komponentlar tartibining qat'iylashuvi ham shu jarayon bilan bog'liq.

Ba'zan bo'rttirilgan obraz ustiga qo'shimcha kuchaytirgich qo'shiladi. *Yuragi yorilayozdi* shakli bilan *yuragi tars yorilayozdi* variantining yonma-yon yashashi bunga misoldir. Taqlid so'z mavjud giperbolik mazmunga qo'shimcha ta'sir beradi va bu holat intensivlik darajasining qat'iy chegara bilan cheklanmasligini anglatadi.

Barqarorlashgan birlik keyinchalik lug'aviy qaydga kiradi, me'yoriy talqin oladi va ta'lim hamda tarjima amaliyotida qo'llanadi. R. Mun korpusdagi qo'llanish bilan lug'aviy qayd har doim ham mos tushmasligini aniqlagan [28; 44–56-b.].

Vaqt o'tishi bilan ichki shakl xiralashishi ham mumkin. *Po'konidan yel o'tmaydi* iborasini bugungi so'zlovchi qo'llaydi, lekin uning dastlabki obrazini har doim ham tiklay olmaydi. *Raining cats and dogs* birligining kelib chiqishiga doir turli taxminlarning mavjudligi ham shu hodisaga daxldor. V. M. Mokiyeenko xalq etimologiyasi va frazeologik demotivatsiya jarayonlarini keng material asosida yoritgan [29; 98–99-b.]. Xiralashgan obraz nutqiy o'yin orqali yana faollashishi ham mumkin. Bunda birikmaning bevosita mazmuni qayta eslatilib, ilgari sezilmay qolgan bo'rttirish yangidan anglanadi. A. Nasisione bunday jonlantirishning diskursiv ko'rinishlarini batafsil tavsiflagan [6].

Taklif etilgan modelni qat'iy ketma-ketlik o'laroq tushunish to'g'ri emas. Ayrim birliklar jamoaviy tanlov doirasida uzoq saqlanadi, boshqalari lug'aviy qaydgacha yetib bormaydi, yana ayrimlari xiralashgan obrazini qayta tiklaydi. Modelning ilmiy qimmatini har bir birlikning barqarorlashuv jarayonidagi holatini aniqroq tavsiflash salohiyatida ko'rinadi.

Endi giperbolik unsurning boshqa semantik komponentlar bilan munosabatiga qaytamiz. Intense baho semasi bilan deyarli ajralmas juftlik hosil qiladi: bo'rttirilgan belgi hech qachon betaraf qolmaydi, u yo ma'qullash, yo qoralash tomon og'adi. Y. F. Arsenteyeva qiyosiy materialda intensivlik bilan baho birga keluvchi semalar ekanini, ularning ajralishi juda kam uchrashini ko'rsatgan [30; 38–39-b.]; Y. M. Volf esa kuchaytirilgan bahoning strukturasini tahlil qilib, intensifikatsiya baho subyektni ishtirokini yaqqollashtirishini asoslagan edi [31; 42–55-b.].

Intense maning tizimidagi o'rnini sinonimik qatorlar yaqqol ochib beradi. Charchoq mazmunidagi qator shkala bo'ylab teriladi: *holdan toymoq* me'yoriy darajani, *tinkasi qurimoq* kuchaygan darajani bildirsa, terminal obrazli birliklar qatorning cho'qqisini egallaydi. Giperbolik a'zo sinonimik qatorda hamisha chekka pozitsiyada turishi frazeologik sinonimiyaga bag'ishlangan tadqiqotlarda ham o'z tasdig'ini topgan [32; 79–90-b.]. Shu qonuniyat leksikografik amaliyot uchun ham ahamiyatli: lug'at maqolasida sinonimlar darajalanish tartibida berilsa, intense baho o'z-o'zidan ko'zga tashlanadi.

Antonimik munosabatlar ham giperbolik sathda tizimli qurilgan. Shodlik bilan xafalik qutblari o'zbek tilida yuz ifodasining ikki chekka manzarasi orqali beriladi: *og'zi qulog'iga yetdi* — *qovog'idan qor yog'adi*; ingliz tilida shu qutblarni *to grin from ear to ear* va *a face like thunder* birliklari tutadi. Qizig'i shundaki, salbiy qutbda ikkala til ham meteorologik obrazga o'tadi — qor va momaqaldiroq inson yuziga ko'chiriladi. Giperbolik antonimlarning bunday oynaviy simmetriyasi tasodif emas. Baho tizimi qutbli, shkala ikki tomonga barobar ochiq.

Emotiv qirra bilan munosabat ham shunga o'xshash tarzda namoyon bo'ladi. V. I. Shaxovskiy emotiv semaning asosiy ma'no, konnotatsiya va potensial sema holatlarini farqlagan edi [33; 88–100-b.]. Giperbola komponentli birliklarda emotivlik odatda ikkinchi maqomda, ya'ni barqaror konnotatsiya sifatida faoldir [34; 88–91-b.]: *joni hiqildog'iga keldi* birligi sabr tugaganini shunchaki xabar qilmaydi, so'zlovchining jizzakilashgan holatini birga uzatadi.

Ko'p ma'nolilik giperbolik birliklarga ham begona emas, biroq unda muhim qonuniyat ko'zga tashlanadi: birlik qancha ma'noga tarqalmasin, intense baho barcha ma'nolarda saqlanadi. *Joni chiqdi* iborasi ham qattiq g'azabni, ham kuchli qo'rquvni bildirishi mumkin — o'zgaradigan narsa hissiyot turi, o'zgarmaydigan narsa esa daraja ko'rsatkichidir [35; 143-b.]. Shunga tayanib, intense baho giperbolik birlikning invariant semasi deb baholanishi mumkin. Semantik taraqqiyot uni ham chetlab o'tolmaydi.

Giperbolik birliklarning nutqiy faollashuvi prosodiya bilan ham chambarchas bog'liq: ular odatda emfatik urg'u, cho'ziq talaffuz va maxsus ohang hamrohligida aytiladi. Yozma matn shu ohangni tinish belgilariga yuklaydi — undov, ko'p nuqta, ba'zan kursiv bilan ajratish. Prosodik yorliq birlikning intense masini tashqi jihatdan takrorlab turadi: kuchli ma'no kuchli talaffuzni chaqiradi.

Uslubiy farqlanish giperbolik birliklar tarkibida ham ko'zga tashlanadi. Ayni mazmun turli nutq uslublarida o'ziga xos vositalar bilan bo'rttirib ifoda etiladi.

Madaniy komponent giperbolik birliklarda ikki yo'l bilan shakllanadi. Dastlabkisi — obraz materialining milliyli: etalonlar, marosim unsurlari, maishiy voqelik belgilar tizimi sifatida iboraga kiradi. V. N. Teliya madaniy konnotatsiyani ana shunday belgilar tizimining til ma'nosiga singishi deb izohlagan [36; 214–215-b.]. Keyingisi — me'yor tasavvurlarining milliyli: nimani "haddan tashqari" sanash madaniyatdan madaniyatga o'zgaradi, shunga muvofiq bo'rttirish darajasining o'zi ham milliy o'lchovda belgilanadi. M. L. Kovshova madaniy kodlar tahlili orqali ikkala yo'lni yagona metodda birlashtirish mumkinligini amalda isbotlagan [37; 120–139-b.].

Blok manbalarining o'zi ham tabaqali: diniy-mifologik turlar bilan maishiy turkum yonma-yon turadi [38; 140–141-b.].

Z. Kyoveches ko'rsatganidek, konseptual asoslar ko'p hollarda umuminsoniy bo'lib, madaniyat ularni tafsilotlar darajasida turlicha "jihozlaydi" [39; 131–133-b.]. Bizning materialda ham xuddi shu manzara: mexanizmlarning to'plami ikkala tilda deyarli bir xil, ularning faollik ulushi hamda obraz materiali esa milliy. Mexanizmlar mazmun maydonlari bo'ylab bir tekis taqsimlanmagan: ayrim maydonlarda giperbolik birliklar g'uj bo'lib to'planadi. Charchoq, qo'rquv, quvonch, kutish, tezlik, qimmat — ana shu maydonlarda ikkala til ham o'nlab birlikka ega, chunki ularda kuchaytirilgan ifodaga ehtiyoj muntazam tug'ilib turadi. Ushbu yoyilish tartibi 2-rasmda aks etgan.

Гиперболик unsurining semantik yoyilish sxemasi



2-rasm. Giperbolik unsurining semantik yoyilish sxemasi

Shakllanish jarayonining teskari yo'nalishi ham mavjud: tayyor giperbolik birlik yemirilib, yarim yordamchi kuchaytirgichga aylanishi mumkin. Ingliz tilidagi *as anything* qiyos qoldig'i (*happy as anything*) bir paytlar to'laonli obrazga ega bo'lgan qurilmaning "bo'shab qolgan" shaklidir; avvalgi bo'limda tavsiflangan kuchaytirgichlar aylanmasi ana shu yemirilishning umumiy fonini beradi. Mexanizm nuqtayi nazaridan bu jarayon shakllanishning oynadagi aksi: obraz emas, faqat intensema qoladi, birlik esa leksik tizimdan grammatik tizim tomon siljiydi.

Yemirilish jarayonining tizimli natijasini A. V. Kunin alohida sinf sifatida qayd etgan: frazeologik intensifikatorlar — mustaqil obrazli ma'nosini yo'qotib, boshqa so'z ma'nosini kuchaytirishga ixtisoslashgan birliklar [40; 218–228-b.]. *Like mad* turidagi shakllar ana shu sinfning tipik vakillari: ularda qiyos obrazi shu qadar xiralashganki, birlik deyarli grammatik vositaga tenglashgan.

Aylanma jarayonning bugungi kunda ham to'xtamagani jonli nutq materialida ko'rinib turibdi: hozirgi o'zbek so'zlashuvda *dahshat*, *o'lguday zo'r* turidagi ifodalar baho kuchaytirgichlariga aylanish bosqichini boshdan kechirmoqda; ingliz yoshlar nutqida *insanely good* singari birikmalar aqldan ozish obrazini oddiy daraja ko'rsatkichiga tushirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка: учебное пособие. – 2-е изд., перераб. – Москва: Высшая школа; Дубна: Феникс, 1996. – 381 с. – URL: <https://sci.e.nlrs.ru/open/980>
2. Ройзензон Л. И. Лекции по общей и русской фразеологии: учебное пособие. – Самарканд: Изд-во СамГУ, 1973. – 223 с. – URL: <https://poradnik-jezykowy.uw.edu.pl/issue/891>
3. Амосова Н. Н. Основы английской фразеологии. – Ленинград: Изд-во Ленинградского университета, 1963. – 208 с. – URL: <https://search.rsl.ru/ru/record/01005941654>
4. Виноградов В. В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке // Избранные труды. Лексикология и лексикография. – Москва: Наука, 1977. – С. 140–161. – URL: <https://scipeople.ru/publication/3458/>
5. Телия В. Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. – Москва: Наука, 1986. – 141, [2] с. – URL: <https://search.rsl.ru/ru/record/01002133605>
6. Телия В. Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – Москва: Языки русской культуры, 1996. – 288 с. – ISBN 5-88766-047-3. – URL: https://rusneb.ru/catalog/010003_000061_a251cc886c015c8edd7997aad1f53f69/
7. Потебня А. А. Мысль и язык. – Киев: СИНТО, 1993. – 189 с. – ISBN 5-7768-0256-3. – URL: <https://ci.nii.ac.jp/ncid/BA24524994>
8. Мелерович А. М. Проблема семантического анализа фразеологических единиц современного русского языка: учебное пособие по спецкурсу. – Ярославль: Ярославский государственный педагогический институт, 1979. – 79 с. – URL: <https://search.rsl.ru/ru/record/01007710405>
9. Жуков В. П. Семантика фразеологических оборотов: учебное пособие. – Москва: Просвещение, 1978.

- 160 c. – URL:
<https://lib.mgppu.ru/OpacUnicode/app/index.php?url=%2Fnotices%2Findex%2FIdNotice%3A163975%2FSource%3Adefault>
10. Langlotz A. Idiomatic Creativity: A Cognitive-Linguistic Model of Idiom-Representation and Idiom-Variation in English. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 2006. – XI, 325 p. – DOI: 10.1075/hcp.17. – URL: <https://benjamins.com/catalog/hcp.17>
11. Gibbs R. W., Jr. The Poetics of Mind: Figurative Thought, Language, and Understanding. – Cambridge: Cambridge University Press, 1994. – IX, 527 p. – URL: https://books.google.com/books/about/The Poetics of Mind.html?id=V_W8M9WOK8cC
12. Glucksberg S. Understanding Figurative Language: From Metaphor to Idioms. – New York; Oxford: Oxford University Press, 2001. – 144 p. – DOI: 10.1093/acprof:oso/9780195111095.001.0001. – URL: <https://academic.oup.com/book/32733>
13. Cacciari C., Tabossi P. The Comprehension of Idioms // Journal of Memory and Language. – 1988. – Vol. 27, No. 6. – P. 668–683. – DOI: 10.1016/0749-596X(88)90014-9. – URL: <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/0749596X88900149>
14. Баранов А. Н., Добровольский Д. О. Аспекты теории фразеологии. – Москва: Знак, 2008. – 656 с. – ISBN 5-9551-0235-3. – URL: https://rusneb.ru/catalog/000199_000009_004044825/
15. Туранский И. И. Семантическая категория интенсивности в английском языке. – Москва: Высшая школа, 1990. – 176 с. – URL: https://rusneb.ru/catalog/005664_000048_RU_RGPU_BIBL_100710651/
16. Арутюнова Н. Д. Типы языковых значений: Оценка. Событие. Факт. – Москва: Наука, 1988. – 338 с. – ISBN 5-02-010870-7. – URL: <https://books.google.com/books/about/Типы языковых значени.html?id=RVRiAAAAAMAAJ>
17. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1978. – 408 b. – URL: <https://uzschoolcorpara.uz/uz/Dictionary?q=lug%E2%80%98at>
18. Кунин А. В. Англо-русский фразеологический словарь. – 4-е изд., перераб. и доп. – Москва: Русский язык, 1984. – 944 с. – URL: https://search.nbuv.gov.ua/cgi-bin/irbis64r_81/cgiirbis_64.exe?C21COM=S&I21DBN=VFEIR&P21DBN=VFEIR&S21ALL=%28%3C.%3E%3D%D0%9A%D0%A3%D0%9D%24%3C.%3E%29&S21CNR=20&S21FMT=fullw
19. Лукьянова Н. А. Экспрессивная лексика разговорного употребления: проблемы семантики. – Новосибирск: Наука, Сибирское отделение, 1986. – 227, [3] с. – URL: <https://search.rsl.ru/ru/record/01001309409>
20. Кунин А. В. Англо-русский фразеологический словарь. – 4-е изд., перераб. и доп. – Москва: Русский язык, 1984. – 944 с. – URL: https://search.nbuv.gov.ua/cgi-bin/irbis64r_81/cgiirbis_64.exe?C21COM=S&I21DBN=VFEIR&P21DBN=VFEIR&S21ALL=%28%3C.%3E%3D%D0%9A%D0%A3%D0%9D%24%3C.%3E%29&S21CNR=20&S21FMT=fullw
21. Мокиенко В. М. Славянская фразеология: учебное пособие. – 2-е изд., испр. и доп. – Москва: Высшая школа, 1989. – 287 с. – ISBN 5-06-001467-3. – URL: https://rusneb.ru/catalog/002072_000044_ARONB-RU_%D0%90%D1%80%D1%85%D0%B0%D0%BD%D0%B3%D0%B5%D0%BB%D1%8C%D1%81%D0%BA%D0%B0%D1%8F%2B%D0%9E%D0%9D%D0%91_DOLIB_808.1-318%28075.8%29_%D0%9C74-877882/
22. Mamatov A. E. O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari: filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2000. – 56 b. – URL: <https://www.samdu.uz/frontend/web/secure-download.php?path=content-files%2F09.07.2019+AA.pdf>
23. Амосова Н. Н. Основы английской фразеологии. – Ленинград: Изд-во Ленинградского университета, 1963. – 208 с. – URL: <https://search.rsl.ru/ru/record/01005941654>
24. Qo'ng'urov R. Subyektiv baho formalarining semantik va stilistik xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 1980. – 168 b. – URL: <https://book.iiu.uz/books/subyektiv-baho-formalarining-semantik-va-stilistik-xususiyatlari-9807>
25. Эмирова А. М. Русская фразеология в коммуникативном аспекте. – Ташкент: Фан Узбекской ССР, 1988. – 89 с. – С. 15–34. – URL: <https://books.google.com/books/about/Русская фразеология в.html?id=g1lJAQAAIAAJ>
26. Naciscione A. Stylistic Use of Phraseological Units in Discourse. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 2010. – XIII, 292 p. URL: <https://benjamins.com/catalog/z.159>
27. Yo'ldoshev B. Frazeologik uslubiyat asoslari. – Samarqand: SamDU nashri, 1999. – URL: <https://api.ziyonet.uz/uploads/books/401/5fa0fbf64fb90.pdf>
28. Moon R. Fixed Expressions and Idioms in English: A Corpus-Based Approach. – Oxford: Clarendon Press, 1998. – XI, 338 p. – ISBN 0-19-823614-X. – DOI: 10.1093/oso/9780198236146.001.0001. – URL: <https://academic.oup.com/book/48204>

29. Мокиенко В. М. Славянская фразеология: учебное пособие. – 2-е изд., испр. и доп. – Москва: Высшая школа, 1989. – 287 с. – ISBN 5-06-001467-3. – URL: https://rusneb.ru/catalog/002072_000044_ARONB-RU_%D0%90%D1%80%D1%85%D0%B0%D0%BD%D0%B3%D0%B5%D0%BB%D1%8C%D1%81%D0%BA%D0%B0%D1%8F%2B%D0%9E%D0%9D%D0%91_DOLIB_808.1-318%28075.8%29_%D0%9C74-877882/
30. Арсентьева Е. Ф. Сопоставительный анализ фразеологических единиц: на материале фразеологических единиц, семантически ориентированных на человека в английском и русском языках. – Казань: Изд-во Казанского университета, 1989. – 123 с. – ISBN 5-7464-0099-8. – URL: https://books.google.com/books/about/Сопоставительный_анал.html?id=oEszAAAAAAAJ
31. Вольф Е. М. Функциональная семантика оценки. – Москва: Наука, 1985. – 228 с. – URL: https://rusneb.ru/catalog/000199_000009_001285363/
32. Yo'ldoshev B. Frazеologik uslubiyat asoslari. – Samarqand: SamDU nashri, 1999. – URL: <https://api.ziynet.uz/uploads/books/401/5fa0fbf64fb90.pdf>
33. Шаховский В. И. Категоризация эмоций в лексико-семантической системе языка / науч. ред. З. Д. Попова. – Воронеж: Изд-во Воронежского университета, 1987. – 192 с. – URL: <https://koha.ysu.am/cgi-bin/koha/opac-ISBDdetail.pl?biblionumber=74792>
34. Шаховский В. И. Категоризация эмоций в лексико-семантической системе языка / науч. ред. З. Д. Попова. – Воронеж: Изд-во Воронежского университета, 1987. – 192 с. – URL: <https://koha.ysu.am/cgi-bin/koha/opac-ISBDdetail.pl?biblionumber=74792>
35. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1978. – 408 b. – URL: <https://uzschoolcorpara.uz/uz/Dictionary?q=lug%E2%80%98at>
36. Телия В. Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – Москва: Языки русской культуры, 1996. – 288 с. – ISBN 5-88766-047-3. – URL: https://rusneb.ru/catalog/010003_000061_a251cc886c015c8edd7997aad1f53f69/
37. Ковшова М. Л. Лингвокультурологический метод во фразеологии: коды культуры. – Москва: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2012. – 453 с. – ISBN 978-5-397-02652-9. – URL: <https://search.rsl.ru/ru/record/01005418024>
38. Ковшова М. Л. Лингвокультурологический метод во фразеологии: коды культуры. – Москва: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2012. – 453 с. – ISBN 978-5-397-02652-9. – URL: <https://search.rsl.ru/ru/record/01005418024>
39. Kövecses Z. Metaphor in Culture: Universality and Variation. – Cambridge: Cambridge University Press, 2005. – DOI: 10.1017/CBO9780511614408. – URL: <https://www.cambridge.org/core/books/metaphor-in-culture/818345C1B0F60FC6AD67AE47460095EE>
40. Кунин А. В. Англо-русский фразеологический словарь. – 4-е изд., перераб. и доп. – Москва: Русский язык, 1984. – 944 с. – URL: https://search.nbuv.gov.ua/cgi-bin/irbis64r_81/cgiirbis_64.exe?C21COM=S&I21DBN=VFEIR&P21DBN=VFEIR&S21ALL=%28%3C.%3EA%3D%D0%9A%D0%A3%D0%9D%24%3C.%3E%29&S21CNR=20&S21FMT=fullw